

O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDA OILAVIY TARBIYANING O'RNI

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221678>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq pedagogikasida oilaning tarbiyaga ahamiyati va tarbiyada nimalarga e'tibor berilishi kerakligi haqida keltirib o'tilgan. Bizning allomalarimiz olimlarimizning oiladagi tarbiyani bollaga zarur ekanligi bolada qanday tarbiya turlarini shakllantirishni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: oila, nuklear, tarbiyaviy sifatlar, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik.

РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКСКОЙ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение семьи в воспитании в узбекской народной педагогике, а также то, на что следует обращать внимание в процессе воспитания. Приводятся идеи наших учёных и мыслителей о необходимости семейного воспитания для ребёнка, а также раскрываются виды воспитания, которые формируются в семье.

Ключевые слова: семья, нуклеарная семья, воспитательные качества, честность, чистота, трудолюбие, гуманизм.

THE ROLE OF FAMILY UPBRINGING IN UZBEK FOLK PEDAGOG

Abstract

This article discusses the importance of the family in upbringing within Uzbek folk pedagogy, as well as the aspects that should be emphasized in the educational process. The ideas of our scholars and thinkers about the necessity of family upbringing for children are presented, and the types of upbringing formed within the family are revealed.

Keywords: family, nuclear family, educational qualities, honesty, purity, diligence, humanism.

Kirish. Oila bu qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir.

Xalqimiz oila ma'naviyatini yuksak qadriyat sifatida qadrlaydi. Tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Bolani yoshligidan ongiga mehr-muruvvat, oqibat va sadoqat tushunchalari singdiriladi. Tarbiya o'chog'i bo'lgan oila bu ijtimoiy muhitning bir bo'lari hisoblanadi. Bu haqda Abdurauf Fitrat «Rahbari najot» asarida shunday yozgan edi: «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar» Ma'rifatchilardan biri Rizouddin ibn Faxriddinning «Insoniarning dinu-dunyolarini tuzatmoq matlub bo'lsa, eng avval go'zal xulqqa ega bo'lm oq ila oilalarni

tuzatingiz. Oilalar tuzalganidan so'ng din ham, dunyo ham tuzaladi» degan gaplarida katta bir haqiqat ifodalangan.

Oilaning yana bir xususiyatlaridan yana biri nuklearligidir. «Nuklear» lotincha so'z bo'lib, «yadro» degan ma'noni anglatadi. Er-xotin va ularning bolalari oila deb ataladi. O'zbek oilalari ko'p bo'g'inli bo'lib, aksariyat hollarda qaynona-qaynota, o'g'il va kelin, qayin aka, uka va qayin singil, opa, nevaralar birgalikda yashashadi. Bunday oilalar shu oilaning o'zi uchun xos bo'lgan o'zaro hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik rishtalarining mustahkamligi va shu kabi axloqiy qadriyatlarning keyingi avlodlarga yetkazilishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, oiladagi kattalarning kelin, o'g'il va qizlariga oila saboqlarini, ro'zg'orshunoslik bo'yicha tajribalarini, bola tarbiyalashdagi yutuqlarini o'rgatishlari shu oila mustahkamligini ta'minlash uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Oilaning muhim vazifalaridan yana biri — tarbiyadir. Oila — tarbiya maskani. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan purhikmat so'zlar oila tarbiyasining negizini tashkil etadi.

Oilaning vazifalaridan yana biri bu bo'sh vaqtni samarali tashkil etishdan iboratdir. Bosh vaqt jamiyatning ijtimoiy qadriyatlaridan biri sanaladi. Oilada bo'sh vaqtni faol tashkil etish, ya'ni kitobxonlik, mehnat, shuningdek, muzey, kino, teatr, konsert va tarixiy obidalarga, qadamjolarga sayohatlar uyushtirish va boshqalar oila barkamolligini ta'minlashning muhim vositasidir. Agar ota-ona bo'sh qoldimi ko'proq farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak. Farzandning bo'sh qolishi natijasida turli xil yomon xulq atvorlarlar yoki yomon xatti harakatlar yuzaga kelishi mumkin. Bekorga xalqimiz «bekorchidan hudo bezor» deb aytilmaydi. Aslida, inson bo'sh qoldimi biror bir ish bilan shug'ullanishi kerak. Har bir ota-onaning vazifasiga oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish, oilada bilimli, aql-zakovatli, uddaburon, jismoniy va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyligini ta'minlash, bo'sh vaqtni unumli o'tkazishga erishish hamda giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.

«Tib qonunlari» kitobida Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida onaning vazifalariga alohida e'tibor beradi. Jumladan, bola kamolotigaemizuvchi ayolning «g'azablanish, qayg'urish, qo'rqish» kabi ruhiy kechinmalari zarar keltirishini uqtiradi. Mumkin qadar sipo, bosiq va chidamli bo'lishi lozimligi maslahat beriladi. Shu qatorda bola axloqining shakllanishida er va xotinning bir biriga bo'lgan munosabatining o'rni kattadir. Oiladagi har bir a'zoning muhim vazifalari mavjud. Oilada otaning vazifasi boshliq bo'lganligi uchun oilaning zarur talablarini bajarishi lozimdir.

Ibn Sino bola tarbiyasidagi fikrlarini bildirish davomida, u bola tarbiyasini ism qo'yishdan boshlanishini aytib o'tgan. Bolaga yaxshi ism qo'yish bu ota-onaning vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaga qo'yiladigan har qanday ism uning tarbiyasiga xulqiga ta'sir etadi.

Demak, Tarbiya birinchi navbatda oilada shakllanadi deb bejizga aytmadik. Bola dunyoga keladigan muhit uning xulqiga tarbiyasiga katta ta'sir etadi. Bola voyaga yetar ekan, oiladagilarnin xulqini tarbiyasini o'zlashtirgan holatda katta bo'ladi. Chunki qush uyasida ko'rgani qiladi deb bejizga aytilib kelinmagan. Bolaning tarbiyasidan uning ota-onasining ham qanaqaligini bilib

olish mumkin. Chunki bola bu ota-onasining yuzi sanalad. Shuning uchun ham ota-onalar bolalarning tarbiyasiga befarq bo'lmashliklari va bola tarbiyasiga ma'suliyat bilan qaramoqliklari zarurdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1 may
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma - bosqich amalga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasining 29 yilligi bayramida Prezident Shavkat Mirziyoevning so'zlagan nutqi. Xalq so'zi 2020 yil 1 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" tantanali marosimdagi nutqi.
8. Avlaev, O. U., Burkhanov, A. A., Ismoilova, D. M., & Norkuzieva, M. A. (2020). Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. Test Engineering & Management, 83, 693-702.
9. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho'lpon, 2019.
10. Bazarova D. "O'zbekistonda xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – davr talabi". – Toshkent: TDYuU, 2019.
11. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva, M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti, 2023
12. Ismoilova D.M Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish "Xalq ta'limi" O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7839 2020 3-maxsus son (mau-iyun).
13. Ismoilova, D. M. (2015). Innovaçionnye texnologii kak komponent razvitiya lichnosti Ulfat, M., & Dilafruz, I. (2020). TARBIYA-YUKSAK MA'NAVIYAT BESHIGI. Academic research in educational sciences, (4).
14. Ismoilova, D. M. (2020). TA'LIM SO'ASIDA PROGNOZ 'ILISH ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Academic research in educational sciences.
15. Ismailova.Z.K. "Pedagogika" 2007-yil
16. M.Toshov.- T.: "EFFECT-D". 2022.-216b /"Professional ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish " O'quv qo'llanma
17. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Tarbiya- shaxs kamolotida eng katta kuch. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar 5-son ISSN 2181-7286 2020 yil dekabr.
18. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Allomalar merosi - milliy tarbiya asosi "Xalq ta'limi"

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali ISSN 2181-7839 1-son, 2021 yil yanvar-fevral.

19. Muxiddinovna, I. D. (2020). Educational forecasting as a scientific and pedagogical problem. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(6).
20. Muhiddinovna, I. D. (2020). celi sovremennogo obrazovaniya, formiruyushie trebovaniya k prepodavatelyu. Jurnal nauchnyx i prikladnyx issledovaniy, 12-14.
21. Mannopovna, J. O., & Muhiddinovna, I. D. (2020). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An international multidisciplinary research journal, 10(5), 1229-1232
22. Mutalipova.M.J. "Xalq pedagogikasi" 2015-yil